

BROYLER JO‘JALARNI HAYOTCHANLIGI VA SAQLANISHI

Alisher Ergashev Anvarjonovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

ABSTRACT

The vitality and protection of broiler chicks is controlled by body temperature, the part of the body that is not covered with feathers and feathers, the crown, ears and respiratory organs. Therefore, it leads to a decrease in the temperature of the internal organs and a decrease in their ability to protect. If this period is prolonged, the chicks will lose weight. If the decrease in temperature is accompanied by an increase in air humidity and wind, it will have a complex negative effect on the body.

АННОТАЦИЯ

Жизнеспособность и защищенность цыплят-бройлеров контролируется температурой тела, той части тела, которая не покрыта перьями и перьями, макушки, ушей и органов дыхания. Следовательно, это приводит к снижению температуры внутренних органов и снижению их защитной способности. Если этот период продлить, цыплята будут терять в весе. Если понижение температуры будет сопровождаться повышением влажности воздуха и ветром, это окажет комплексное негативное воздействие на организм.

Kalit so‘zlar: tana, harorat, broyler, jo‘ja, ichki organlar, namlik, yorug‘lik, saqlash, o‘sish, rivojlanish va teri.

KIRISH

Parrandalarda amaliy faoliyat natijalari zootexniya fanining yutuqlari bilan belgilanadi. Seleksiya ishlari yuqori mahsuldor, raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishni ta’minlashi va bugungi kunda ishlab chiqarishning amaliy masalalarini hal qilishi kerak. Parrandalar xususan “Broyler go‘sht mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligining asosiy omili hayvonlarni biologik jihatdan to‘liq oziqlantirishdir. Oziqlantirish darajasini va sifatini tartibga solish, zotning belgilarini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Respublikamiz prezidentining farmon va qarorlari, hukumat qarorlari bu borada dasturi amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu hujjatlarda chorvadorlar uchun barcha shart-sharoit va imtiyozlar o‘z aksini topgan. Mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantrish uchun mustaqillik yillarida barcha imkoniyatlar yaratib berildi. Chorvachilikni

xususiyashtirish natijasida chorva hayvonlari egasini topdi, fermer, dehqon va shaxsiy xo‘jaliklarda chorva bosh sonlari ko‘payib, mahsulot etishtirish keskin oshdi.

Broyler jo‘jaxonaning mikroklimati. Havo harorati. Parrandalarda tana harorati me’yori tananing pat va par bilan qoplanmagan qismi, tojisi, sirg‘asi va nafas olish organlari orqali boshqariladi. Yuqori havo harorati teploregulyatsiya me’yorida bo‘lganda ham parrandalar tanasini ortiqcha qizib ketishiga (gipertermiya) olib kelishi mumkin. Bu o‘z navbatida me’da faoliyatini, me’da osti bezini, ichak va jigarning normal funsiyasini izdan chiqaradi. Gipertermiya bundan tashqari organizmning himoya funksiyasini izdan chiqaradi. Jo‘jaxona harorati 40-42°S dan ortib ketishi parrandalar uchun ayniqsa jo‘jalar uchun havflidir. I.S.Zagaevskiyning ta’kidlashicha 14-10 kunlik jo‘jalarda haroratning 38-42°S gacha ko‘tarilishi ularning himoya qobiliyatini pasaytirib paratif kasalligiga chalinishini kuchaytirgan.

K.F.Rojdestvenskiyning ma’lumoti bo‘yicha havo harororatining 1 °C ga ko‘tarilishi ozuqa iste’mol qilishni 1.1-1.2 % ga kamaytiradi.

Tashqi muhitning sovib ketishi parrandalarga ayrim organlarini va umumiylarini organizmning faoliyatiga salbiy ta’sir etadi. Ayrim organlari deganda masalan, teri yuzasidagi arteriyalarni spazma holiga, toj, zirak va barmoqlarini muzlab qolishiga olib keladi. Parranda tanasini umumiylarini sovib ketishi terida anemiya holatini, ichki organlar gipermiyasini, qon bosimini ko‘tarilishini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ichki organlar harorati pasayishiga va muhofaza qobiliyatini pasayishiga olib keladi. Agar bu muddat cho‘zilib ketsa tovuqlar ozib ketadi. Agar haroratning pasayishi havo namligini ortishi va shamol bilan kuzatilsa organizmga kompleks salbiy ta’sir etadi.

Shuning uchun jo‘jaxonaning harorati standart bo‘yicha quyidagicha bo‘lishi kerak.

1-jadval

Broyler jo‘jaxonasining harorati

Jo‘jalarning yoshi, kun hisobida	Jo‘jaxona harorati, °C
1-7 kun	35°-32°
8-20 kun	29°-24°
21 kundan katta	24°-20°

Biz tajriba o‘tkazgan xo‘jaligimiz sharoitida havo harorati, namlik va yorug‘lik avtomatlashirilgan bo‘lib kompyuterda boshqariladi. Bu ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda keltiriladi.

2-jadval

Davrlar bo'yicha jo'jaxonaning harorati. t°C

Kunlik davri	Xona harorati, °C da
1-2 kun	31,5 °C
3-5 kun	29,5 °C
6-8 kun	28,5 °C
9-11 kun	27,5 °C
12-14 kun	27,2 °C
15-17 kun	26,2 °C
18-20 kun	25 °C
21-42 kun	24-20 °C

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa ko'rindiki, bu yangi krossi "ROSS-308" da jo'jaxona harorati biroz aniqlashtirilgan bo'lib har ikki kunda o'zgarib turadi va sobiq ittifokda qabul qilingan standart talablaridan biroz farq qiladi.

Havo namligi. $1m^3$ havodan olingan suv bug'larining miqdori absolyut namlik deyiladi. Absolyut namlikni maksimal namlikka bo'lgan nisbatini protsentdagi nisbati nisbiy namlik deyiladi. Bu ko'rsatkich parrandaxona havosini suv parlari bilan tuyinganlik darajasini ifodalaydi. U qanchalik yuqori bo'lsa o'shancha maksimal namlikka yakinlashadi. Havo harorati bilan nisbiy namlik orasida teskari proporsinallik bo'lib, harorat qancha yuqori bo'lsa nisbiy namlik shunchalik past bo'ladi. Parrandaxonalarda nisbiy namlik 60-98 % gacha bo'ladi. Tovuqxona havosining nisbiy namligi hammavaqt atmosfera havosining namligidan yuqori bo'ladi. Katta yoshli tovuqlar nafas yo'li orqali 40 ml, tezak va siydik orqali esa 90 ml suv ajratadi deb uqtiradi V.V.Sorokin. Umuman olganda tovuqxona havosining 75 % namligi tovuqlar tomonidan ajratiladi. Parrandalar organizmining termoregulyatsiyasiga havoning namligi va harorati kuchli ta'sir etadi. Past haroratda namlikning ko'p bo'lishi issiqning ajratilishini tezlashtiradi va organizm tez sovib ketib parrandalar shamollashi mumkin. Yuqori haroratda organizmdan issiqlik ajralishi (teplootdaga) qiyinlashadi va parrandalar loxas bo'lib gipertermiyaga uchraydi deb yozadi V.V.Sorokin (1998). Namlik yuqori bo'lgan parrandaxonalarda parrandalar lanj bo'lib ishtaha pasayadi, ozuqa hazm qilish jarayoni izdan chiqadi va mahsuldarligi pasayadi. Ayniqsa bunga yosh jo'jalar sezuvchanroqdir. Bunday holda parrandaxonada invazion va infektion kasalliklar tug'diruvchi omillar kuchayadi. Eng optimal nisbiy namlik 60-70 % hisoblanadi, maksimal holda 80 %, yosh jo'jalar uchun 70 % bo'lishi mumkin. Yuqori haroratda nisbiy namlikning past bo'lishi ham noxush holatdir. 55 % va undan past nisbiy namlik bo'lganda harorat yuqori bo'lsa parrandalarning holati yomonlashadi, ayniqsa buni yosh jo'jalar kuchli sezadilar. Shilliq pardasi va patlari quruqlashadi,

chanqoqlik kuzatiladi va yosh jo‘jalarni o‘sish va rivojlanishi susayadi. Tovuqxonada namlikni kamaytirishning asosiy chorasi parrandaxonani toza saqlash, uni shamollatish, go‘ngdan tozalash va to‘shamani yangilash hisoblanadi. Har 1m² maydondagi parrandalar sonini oshib ketishga yo‘l qo‘ymaslik, yerga suv to‘kmaslik, inventarlarni tovuqxonada yuvmaslik va parrandaxona polni un xolidagi ohak bilan (1kg ni 10m² pol ga) ishlov berish hisoblanadi.

Biz tajriba o‘tkazgan xo‘jaligimizda havo namligi avtomatik ravishda kompyuter orqali boshqariladi. Bu ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

3- jadval

Davrlar bo‘yicha jo‘jaxonanining havo namligi, %

Jo‘jalar yoshi, kun	Xonanining havo namligi, %
1-2 kun	65%
3-5 kun	65 %
6-8 kun	60%
9-11 kun	55 %
12-14 kun	50%
15-17 kun	50%
18-20 kun	50%
21-42 kun	50%

Olingan ma’lumotlardan ko‘rinishicha broyler jo‘jaxonasining havosini nisbiy namligi birinchi 5 kunda 65 %, 6-8 kunlari 60 %, 9-11 kunlari 55 % ni tashkil qilgan. Keyinchalik esa 42 kunlik yoshigacha 50 % bo‘lgan.

Parrandaxonani yoritilishi. Quyosh nuri parrandalarga turlicha va murakkab ta’sir ko‘rsatadi. Agar quyosh nuridan optimal ravishda foydalanilganda parrandalarning o‘sish, rivojlanishi, tirik vaznini ortishi, rezistentligi kuchayadi va mahsuldarligi ortadi. Agar parrandalarni ultrabinafsha nur bilan nurlatilsa qonida kalsiy va fosfor miqdori ortadi va raxitga chalina boshlagan jo‘jalarda suyaklari mustahkamlanib shifo topa boshlaydilar deb ta’kidlaydi (P.I.Floktistov (1962).

Parrandalarni jadal o‘sirish texnologiyasida (parrandachilik fabrikalarida) yetishmaydigan tabiiy ultrabinafsha nurining o‘rniga eritemno-lyuminissent lampalaridan 79 V-15 va boshqa lampalardan qo‘llaniladi. Bunday sun’iy ultrabinafsha nurlardan foydalanish parrandalarning o‘sish-rivojlanishini, salomatligini yaxshilaydi, parrandaxona havosidagi mikrofloralarni kamaytiradi va mahsuldarligini yaxshilaydi. Sporasiz mikrofloradan, otsistlardan ularning lichinkalari va gelment tozalashda kuyosh nurining ahamiyati juda kattadir. Kuyosh nuri o‘rniga foydalaniladigan sun’iy

lampalarning qonsentrangan to‘g‘ri nuri yoyilib, tarqatilgan yorug‘likka nisbatan bir necha bor bakteratsidlik xususiyati yuqoridir. Eng yuqori bakterotsidlik xususiyati ultrabinafsha nurda, so‘ngra binafsha nurlik va eng past bakterotsidlik xususiyati ko‘k lampalarda bo‘ladi.

Yorug‘lik yetmasligi parrandalarda kamqonlik, osteomalyatsiya, tuxumdorlikni pasayishiga olib keladi, tovuqlar ko‘p kasallikka chalinadi va tuxumning inkubatsiya sifati pasayadi. Jo‘jalar o‘sish, rivojlanishidan orqada qoladi va raxit kasalligi kuchaya boradi, deb uqtiradi (K.V.Rojdestvenskiy (1980). Biz tajriba o‘tkazgan xo‘jaligimizda yorug‘lik kunining davomiyligi va yoritish jadalligi avtomatik ravishda kompyuter orqali boshqariladi.

4-jadval

Davrlar bo‘yicha jo‘jaxonadagi yorug‘lik kunning davomiyligi va yoritish jadalligi, soatda

Jo‘jalar yoshi, kun	Luks	Yoritish davomiyligi, soat
1-2 kun	25	24 soat
3-8 kun	20	23 soat
9-14 kun	15	20 soat
15-39 kun	8	23 soat
40-42 kun	10	23 soat

Broyler jo‘jalarni saqlanishi. Qishloq xo‘jaligining barcha sohalarida jumladan, parrandachilikda ham iqtisodiy islohatlarni joriy etilishi va uni xo‘jaliklarni iqtisodiyotini ishlab chiqariladigan mahsulot bilan belgilanadi. Chorvachilikda va xususan parrandachilikda bu ko‘rsatkich parrandalarni bosh soni hamda mahsulot berishi bilan ifodalanadi. Bu ko‘rsatkichlar juda muhim bo‘lib, parrandalarni hayotchanligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun biz tajribadagi jo‘jalarni hayotchanligini, ya’ni saqlanishini ham davrlar bo‘yicha o‘rgandik.

Olingan ma’lumotlardan shu narsa ko‘rinadiki, xo‘jalikda juda hayotchan ROSS-500 krossiga mansub bo‘lgan jo‘jalar yaxshi parvarishlanganligi va ozuq ratsioni to‘la balanslashtirilganligi tufayli hamda mikroklimat ko‘rsatkichlari kompyuterda boshqarilishi sababli nobud bo‘lish kam bo‘ldi. Bu yerda ozuqlantirish, sug‘orish, havo harorati, namligi, yorug‘lik kuni va yoritish jadalligi avtomatik ravishda kompyuterda boshqariladi.

5-jadval

Tajribadagi jo‘jalarning saqlanishi

Yoshi, kunlik	Nazorat guruhi			1 va 2-tajriba guruhi		
	Qabul qilindi, bosh	Nobud bo‘ldi, bosh	Saqlani shi, %	Qabul qilindi, bosh	Nobud bo‘ldi, bosh	Saqlanis hi, %
1-5	100	1	99	100	1	99
6-10	99	1	98	99	1	98
11-15	98	1	97	98	-	98
16-20	97	1	96	98	-	98
21-25	96	1	95	98	-	98
26-30	95	-	95	98	-	98
31-35	95	-	100	98	-	98
o‘rtacha	100	5	100	100	2	98

Nazorat guruhidagi jo‘jalarda 1-20 kunlik yoshida 4 ta o‘lim bo‘lgan va saqlanish 96% ni tashkil qilgan. 21 kundan 35 kunlik yoshigacha 1 bosh o‘lim bo‘lgan (ular go‘shtga so‘yilgan), saqlanish 95% ni tashkil qilgan.

Xulosa. Shunday qilib, xo‘jalik sharoitida jo‘jalarning 1-35 kunlik yoshida parvarishlashda nobud bo‘lish juda kam uchraydigan holatdir va saqlanish 98 % ni tashkil etadi. 1-tajriba guruhida 1-5 va 6-10 kunlari 1 boshdan jo‘ja nobud bo‘lib so‘ngra o‘lim bo‘lmagan va saqlanishi 98% ni tashkil qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 13 noyabrdagi “Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4015-sonli Qarori www.lex.uz.
- Kalashnikov, A. P. qishloq xo‘jaligi hayvonlarini boqish normalari va parhezlari: o‘quv usuli. talabalar uchun qo‘llanma / A. P. Kalashnikov, V. V. Shcheglov, N. G. Pervov.- M.:Agropromizdat, 2003 Yil.-456 s.
- Parrandalarni boqish bo‘yicha ilmiy va ishlab chiqarish tadqiqotlarini o‘tkazish metodikasi / komp. Sh. A. Imangulov, I. A. Yegorov, T. M. Okolelova, A. N. tishenkov va boshqalar Sergiyev Posad. : VNI-TIP, 2004 YIL. 13 s

4. Parrandalarni boqishni tartibga solish bo‘yicha tavsiyalar / komp. T. N. Lenkova, Sh.A. Imangulov, I. A. Yegorov, L. M. pri-sajnaya, Z. A. Petrina. Sergiyev Posad.: VNITIP, 1992 yil. 55s.
5. Parrandalarni boqish bo‘yicha tavsiyalar / V. I. Fisinin, Sh.A. Imangulov, I. A. Egorov, T. M. Okolelovaning umumiy tahriri ostida. Sergiyev Posad, 2003 Yil. 143 s.